muammolarga panja ortidan qarash kelgusida bugungidanda og'irroq yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Anjumanda bildirilgan takliflar har birimizni «uyg'otib», til himoyasiga jiddiy qarashga undaydi.

Bahrom BOYMURODOV

Buxoroda joriy yilning 24-26 may kunlari "Central Asia – 2023: Fan, ta'lif, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxonalar" XVI xalqaro anjumanini bo'lib o'tadi. Abu Ali Ibn Sino nomidagi axborot-kutubxona markazida tadbir oldidan o'tkazilgan matbuot anjumanida shu haqida so'z bordi.



BUXORO YANA BIR XALQARO ANJUMAN MEZBONI

– Anjuman fan, ta'lif, madaniyat va biznes sohalarida elektron axborot resurslarini rivojlantirish va qo'llashda axborot-kutubxona muassasalarini, o'quv yurtlari, arxivlar, muzeylar va boshqa tashkilotlarning hamkorligini yanada yaxshilash, kutubxonalar ishining muammolari, ularning innovatsion rivojlanish yo'llarini izlashga qaratilgan, – deydi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

Alisher Navoiy nomi berilgan. 2012-yil 20-martdagи Prezidentimizning «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi – Axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qaroriga muvofiq kutubxona tarkibi yangilandi. Uning bo'limlari va xizmatlari takomillashtirildi. Vazifalar doirasini gaytaytirildi. Kutubxona hozirgi kunda mamlakatdagi barcha axborot-kutubxona muassasalarini uchun markazi

TADBIRGA QIRG'IZISTON, OZARBAYJON, ARMANISTON, TURKIYA, QOZOG'ISTON, ROSSIYA, TOJIKISTON, BELORUS, AQSH, NIDERLANDIYA, LITVADAN SOHA MUTAXASSISLARI ONLAYN VA OFLAYN ISHTIROK ETADI.

Umida Teshabayeva. – O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha har yili an'anaviy "Central Asia: Fan, ta'lif, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari" mavzusida xalqaro anjuman o'tkazil keladi. Tadbir doirasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning gumanitar hamkorligi bo'yicha "Kitob va mutolaa – jamiyat taraqqiyotining strategik resursi" mavzusida forumi o'tkaziladi. Ushbu yirik tadbirda respublikamizdagi axborot-kutubxona muassasalarining bugungi kundagi holati, sohaga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosi, tajribalari, muammolari tahlil qilinib, istiqboldagi rejali belgilab olinadi. Axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda qishloq aholisining barcha qatlamlarini kutubxona xizmati bilan qamrab olish, shuningdek, uzoq hududlarda istiqomat qiladigan aholi uchun ko'chma kutubxonalar tashkil etish, hujjatlarni elektron yetkazib berish, axborot-kutubxona resurslaridan masofadan turib foydalanishni rivojlantirish, yakka va guruhi hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil qilishni takomillashtirish, foydalanuvchilar o'tasida mutolaa madaniyatini oshirish, axborot-kutubxona muassasalarini va mutaxassislarining imjini yaxshilash o'rinn olgan. Bundan tashqari, "Axborot-kutubxona a'llochisi" ko'krak nishoni ta'sis etilgan. Bu yilgi anjumanda axborot-kutubxona sohasi rivojiga, aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy-madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish ishlariga munosib hissa qo'shgan, jamiyatda mutolaa madaniyatni, kitobxonlikni keng targ'ib qilish va yosh mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida samarali mehnat qilgan hamda bu yo'nalishda yuqori natijalarga erishgan fuqarolarni rag'batlanishirish ko'zda tutilgan. 1948-yilda kutubxonaga buyuk o'zbek shoiri

va metodik markaz bo'lib xizmat qilmoqda. Konferensiya doirasida axborot-kutubxona, nashriyot-matbaa va kitob savdosi sohalari mutaxassislarining Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida kitob va kitobxonlikni targ'ib qilish va ommalashtirish bo'yicha birligidaqgi sa'y-harakatlarini birlashtirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish bo'yicha eng muvaffaqiyatli metodik ishlanmalar, loyihalarni ishlab chiqish va aniqlash maqsadida "Kitob va mutolaa jamiyat rivojanishidagi strategik resursi" hamdo'stlik II-forumi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Tadbirga Qirg'iziston, Ozarbayjon, Armaniston, Turkiya, Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, Belorus, AQSH, Niderlandiya, Litvadan soha mutaxassislarini onlayn va oflays ishtirok etadi. Konferensiya dasturi doirasida kitobxonlik masalalari, kutubxonachilik oldida turgan istiqboldagi vazifalar hamda sohada o'z yechimini kutayotgan masalalarga bag'ishlangan ilmiy sho'balar, amaliy seminarlar, mahorat darslari onlayn va oflays tashkil etiladi. Bu yilgi konferensiya o'tgan yillardalarindan kitob va kitobxonlik masalalariga, sohadagi muammolarga, kutubxonachi kadrlar masalalariga, kutubxonalarda ilmiy-metodik faoliyat holatiga, ilmiy faoliyat yuritishda jahon axborot resurslaridan foydalanishning muhimligiga alohida e'tibor qaratilishi bilan ahamiyatlidir.

Matbuot anjumanida Rossiya milliy kutubxonasi bosh direktori V.Gronskiy

«Rossiya milliy kutubxonasida

O'zbekiston materiallarining fondi»

to'g'risidagi taqdimoti bilan qatnashdi.

Anjuman doirasida Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati axborot-

kutubxona markazi hamda «Rossiya milliy kutubxonasi» federal davlat budgeti muassasasi o'tasida memorandum imzolanishi rejalashtirilgan.

Zarif KOMILOV, O'ZA

«SOG'INMASDAN YASHAB BO'LMAYDI»



Farg'onan
vodiysi
«Sog'inmasdan
yashab
bo'lmaydi» nomli
she'riyat va
qo'shiq kechalar
bo'lib o'tdi. Unda
O'zbekiston
Yozuvchilar
uyushmasi a'zosiz,
shoir Shuhrat
Orif va iste'dodli
xonanda Baxtiyor
Rahmonov
ishtirok etdi.

Qo'qondagi «Temiryo'Ichilar» madaniyat saroyida o'tkazilgan tadbirda Qo'qon davlat pedagogika instituti pedagoglari va talabalari, ijodkorlar, ijodiy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar qatnashdi. Filologiya fanlari doktori, professor Zebo Qobilova shoir Shuhrat Orif ijodining o'ziga xos jihatlar va uning takrorlamaydigan badiiy izlanishlari haqida so'zladi.

Tadbirda shoir yangi she'rlaridan o'qib berdi. Xonanda Baxtiyor Rahmonovning dillortar qo'shiqlari davraga ko'tarinkin kayfiyat va zavq bag'ishladi.

Farg'onan davlat universitetida bo'lib o'tgan ma'naviy anjumanda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazining Farg'onan bo'limi rahbari Ma'sudjon Sulaymonov shoir va xonandaning ijodiy hamkorligiga asoslangan bu kabi tadbirdar aholining, ayniqsa, yoshlarning ruhiy olamini boyitishga, ulardag'i badiy didni yuksaltirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Navbatdagi tadbir Namangan shahridagi «Yangi O'zbekiston – yoshlari ziyo maskanix axborot-kutubxona markazida o'tkazildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyat bo'limi rahbari Ziyovuddin Mansur, «Milliy tizlanish» demokratik partiyasining viloyat Kengashi raisi Dilnoza Azizova va boshqalar shoir Shuhrat Orif davomiy tus olgan ijodiy uchrashuvlari orqali Namangan yoshlariada adabiyotga va kitobxonlikka qiziqishni kuchaytirishga hissa qo'shayotganini bildirishdi.

Bir so'z bilan aytganda, Farg'onan vodiysi «Sog'inmasdan yashab bo'lmaydi» nomi ostida qizg'in kechgan she'riyat va qo'shiq kechalar o'ziga xos adabiyot, san'at bayramiga aylanib ketdi.

Shoir va xonandaning o'zaro ijodiy hamkorligi hududlarda yashayotgan ijodkorlar, yosh qalamkashlarga ham rag'bat va ijodiy turtki berishi, shubhasiz.


O'ZA





Hakim SATTORIY

Ahmad Shimshirgilning «Amir Temur» asari kitob holida nashr etilgani yurtimiz madaniy-ma'rifiy hayotidagi qovonchli voqealardan biri bo'ldi. Ushbu kitob bilan tanishib, e'tiroflar o'rini ekaniga yana bir karra ishonch hosil qildim. Haqiqatan, tariximiz yuzasidan yozilgan kattakichik asar, agar u haqiqatni ifodalashga xizmat qilsa, har qancha e'zozlasak, oz. Bu safargi e'tirofning yana bir sababi kitob muallifining qardosh va qondosh turk xalqining vakili, yaqinlargacha bu mavzuga bir yoqlama yondashib kelgan ilmiy jamoatchilikka mansub tadqiqotchi bo'lgani edi. Demak, tarix haqiqati astasekin tantana qilayapti. Qiziqishimning ikkinchi sababi esa mazkur mavzu ham sevimli mashg'ulotlarimdan bo'lib, shu yo'nalishda «Hazrat Sohibqiron» va «Sohibqiron abadiyat» kitoblarim qayta-qayta nashr etilgan, ularning «taqdir» yuzasidan ham gumanom ber edi. Ahmad Shimshirgilning kitobini o'qib chiqqach, mavzuda hali ko'p tadqiqotlar olib borilishi, yangi-yangi kitoblar yozilishi kerakligiga, bizning sa'y-harakatlarimiz bu yo'ldagi ilk qadamlar ekaniga ishondim. Ya'n «O'nta bo'lsa, o'rni boshqa» deganlaridek, o'sha davr tarixining shavkati shunchalar ulug'vorki, qancha ko'p munosabat bildirilsa, haqiqatga shunchalik yaqinlashilaveriladi. Eng ajablanarlisi, bu jarayon tufayli qiziqish aslo susaymaydi, aksincha yanada ortib boraveradi. Chunki bu yo'lga tushgan odam butun insoniyatga mansub tilsimga duch keladi. Ha, chindan ham Sohibqiron bobomizning qaddi-basti shunchalik purviqor!



Marmara universitetining professori, tarix fanlari doktori Ahmad Shimshirgil Usmoniyalar davriga doir salmoqli tadqiqotlari bilan tilga tushgan olmlardan. Uning bevosita turkiy olamning buyuk fotihi Sohibqiron Amir Temur faoliyatiga qiziqishini esa ana shu yo'nalishdagi tadqiqotlari taqozo qilgan bo'lsa, ajab emas. Asar ruhi shuni tasdiqlaydiki, Ahmad og'a keng miyoqlarda fikrlaydigan, tarixiy jarayonlarni tor mahalliy yoki milliy biqqlikda emas, balki umuminsoniy, umumjahoniy ufqlarda ko'ra oladigan hur fikrli yangi avlod olmlari silsilasiga mansub ekan. «Amir Temur» kitobida olim aniq dalillarga tayanib, ularning sharhida halol, rostgo'y pozitsiyada bo'lishga intilgani uchun ham uning bitiklarida tarix haqiqati hayot haqiqati bilan uyg'unlashib ketgan. To'g'ri, asarning «Sohibqiron Amir Temur», «Turkistonning birlashishi» deb nomlangan dastlabki boblaridagi tafsilotlar bugungi o'quvchi uchun yangilik emas. Ammo muallifining ravon uslubi, tarixiy dalillarni badiiy izohlar bilan yana ham yorqinlashtirishi yoxud Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»si va boshqa manbalardan sharhlarni aynan keltirishi o'quvchiga maroqli mutolaa tuhfa etadi. Bunda tarjimonlar Iqbol Usmon va Abdulla Muborakning vazifani muvaffaqiyatlari uddalagan qo'l kelgan (mas'ul muharrir tarix fanlari doktori, professor Azamat Ziyo) deyish mumkin. Umuman, kitobning jamoatchilikka yetkazilishi ijobji hodisa sifatida baholanadi, negaki, garchi bu mavzuda xorijda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning hammasidan jamoatchiligidimiz xabardor emas.

Albatta, bir asarning madaniy muomalaga kiritilishi bilan bu boradagi ishlarga ko'zgu tutilgandek bo'ladi, yutuqlar qatorida muammolar ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, temurshunoslikda yurtimizda ancha ishlar qilinib, ko'plab masalalarga oydinlik kiritildi. Biroq hali bajarilishi lozim bo'lgan yushmanlar yetarli. Bu holni turk qardoshimizning kitobi mutolaasi davomida yana bir marta his etdik. Negaki, muhtasham tarixda hech bir unsurni faromush qilish mumkin emas, chunki hamma nuqtalar joyida bo'lsa, asar mukammal bo'ladi, bil'aks, ishtibohlar, munozaralar ko'payaveradi. Bu hol esa tarixiy dalilni yaxlitligicha va butun bo'y-basti bilan tasavvur qilishda muhim o'mildir. Shundagina, butun insoniyat tarixi hayot haqiqatiga xizmat qiladi. Ayni ma'noda tadqiqot va asarlardagi ba'zi hollarni haq yo'ldagi urinishlar tarzida qabul qilsa bo'ladi.

Shubhasiz, Toshkentda nashrha tayyorlangan va Turkiyada chop etilgan «Amir Temur» kitobi chinakam e'tirofga arziydi, asar yangicha noshirlik mahsuloti sifatida ham qadrli. Bu o'rinda hozirgi yutuqlardan kelchiqib, mavjud axborotlarga murojaat etish ma'nosida ba'zi masalalarga e'tibor berilganda, yana ham yaxshi bo'ladi. To'g'ri, nashrda jiddiy mantiqiy xatolar yoki tarixiy dalillarni ataylab buzib talqin qilish singari nomaqbul o'rinnlar uchramaydi, nazarga ilingan xatolarni esa bir harf yoki so'zni almashirish bilan tuzatish mumkin. Negaki, bugungi ilmiy salohiyat har sohada o'ta aniqlikni talab qilmoqda. Jumladan, kitobda nasl-nasab (geneologiya) borasida ba'zi chalkashliklar ro'y bergan.

Masalan, Sohibqiron va Turmish o'g'o nikohid dan «Umarshayx ismli o'g'lon dunyoga keldi». «Shu yili yozda ikkinchi xotini O'ljoy Turkon o'g'o ham o'g'il tug'ib, unga Jahongir deb ism qo'yildilar» (37-38 betlar) deb yozilgan. Bu dalillar 291-betda ham takrorlangan. Holbuki, Umarshayx Mirzoning onasi To'lin oqa ekanligi, Turmish oqanining farzandi Muhammad Jahongir atalgani, O'ljoy Turkon esa Sultanbaxtbegimini dunyoga keltirgani O'zbekistonda nashr etilgan kitoblarda qayta-qayta ta'kidlangan va bu dalillarga hech qanday e'tiroz yo'q.

Nashrda kuzatiladigan ana shunday xatolarni bir qarashda shunchaki imloviy yoki tahririy chalkashliklar desa ham bo'ladi. Ularni to'g'rilash katta mashaqqat ham tug'dirmaydi. Ammo niyat mo'tabar mavzudagi har bir bitikning nuqsonis bo'lishiga erishishdir. Shu ma'noda quyida keltirilayotgan mulohazalar hech kimni xafa qilmaydi, deb o'ylaymiz. Zero, «Ilm ahlining odobi halimlikdir». (Hadisdan) Albatta, ular keyingi nashrlarda, albatta, to'g'rilanishi lozim bo'lgan kamchiliklar, nazarimizda.


Yozuvchining ishi shunchalik nozikki, «bir nuqta birla «ko'zni» «ko'r» qilurlar» deganlaridek, bir harf bilan kutilmagan ma'no chiqib qolishi mumkin. 98-betda «...ayoli Qutlug' Turkon o'g'o» deyilgan. Bu qo'pol xato. Holbuki, 103-betda bu ibora to'g'ri berilgan. Sohibqiron laqab emas, rutba, maqom (22-bet), buni izholasak, ancha vaqt ketadi, lekin ishonamizki, ko'pchilik buni tushunadi. «Mahmudiy chuquq» (52-bet) – qudug'i, bu ko'plab manbalarda qayd etilgan. «Marv o'rniida bo'lgan Maxan» (shu betda), aslida Marv

viloyatidagi Moxon qishlog'i! Sher Bahodirmi, Sher Bahrom (60-bet)? «Tarmashirin» (44-bet), emas Tarmashir (To'rt ulus tarixi)da shunday yozilgan. Balki «Tarma sher»dir («olma shirin» emas?!). Bayonquli – Boyonquli (46-bet) – qay biri to'g'ri? «Zanjir saroy» (45-bet) – qo'shib yoziladimi, ajratib? «Shoh Valiy, ilxonilar, Begijekbek – Bekkichi (50-51 bet)» qanday yozilgani to'g'ri?

Albatta, bunday nuqsonlar faqat ushbu kitobga xos emas, chunki joy va kishi nomlarini birxillashtirish borasida hali ham bir to'xtamga kelingani yo'q. Ammo ularni chop etish jarayonida to'g'irlash mumkin edi. Masalan, Temurbekning oilada to'rtinchı o'g'il ekanligi ta'kidlangan (20-bet), boshqa joyda esa ukasi deb Iduku Barlos (89-bet) qayd qilinyapti. Holbuki, Sohibqiron «Temur tuzuklari»da avvalgi safdoshlardan biri sifatida lygu Temurni tilga oladi. Bular bir kishimi yoki... Malika Xonzoda Saromulkxonim, To'kalxonim singari Xonzodaxonim tarzida yuritiladi, chunki ularning nasnasi bo'li («Xonzodabegim» 82-bet). Shujoning qizi emas, nabirasi kelinlikka so'raladi (111-bet). «Bag'dodni Sultan Ahmadning Faraj de gan qo'mondoni himoya qilayotgan edi» (212-bet), holbuki, Sultan Ahmad jaloyiriyilar yetakchisi, Faraj esa Misr sulton Barquning o'g'li. «...Jeneva bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi» (192-bet) – agar bu rost bo'lsa, bunga alohida izoh berish lozim edi. Umarshayxga emas, Umar Mirzoga maktub yuboriladi (286-bet). O'sha paytda ikki daryo oraliq'i O'rra Osiyo deb atalganni? (122-bet). «Chenkshining zamонда (1336 – 38-yillarda) diyorlarga nasroniyalar kelib, missionerlik qilgani va hatto cherkovlar qurgani haqida bitiklar saqlanib qolgan» degan dalil jiddiy izohni lab qilar ekan. «Sharqning mashhur sulolalar» kitobida (Sh. Vohidov, A. Qodirov. Toshkent. «Akademnashr») keltirilishicha, Changshi Ebug'on o'g'lon o'g'li 1334-yil qisqa davr hukmronlik qilgan. Ko'rsatilgan vaqtida esa Buzan Tore Temur o'g'lon o'g'li (1334 – 38-yillarda) taxtida o'tirgan (197-bet). Ko'rinaliki, kichkina dalilni istifoda etish uchun ham bir necha manbalarga murojaat etishga to'g'ri keladi.

Ta'bir joiz bo'lsa, qayd etib o'tilgan xatolarni tahrirtalab yoki

HAQIQATI TANTANASI



imloviy anglashilmovchiliklari deb qabul qilsa ham bo'ladi. Ammo asarda keltirilgan ba'zi o'rinlar jiddiy izohlarni talab etadi. Jumladan, Amir Temurning hukmdor sifatida tan olinishi marosimida «...oq kigiz gilamning ustiga o'tqazishdi. So'ngra gilamning to'rt tonomidan ushlab, uch marta boshlari qadar ko'tarib tushirishdi» (74-bet) deyiladi. Ko'pgina mutaxassislar esa bu marosim ko'chmarchilarga xos bo'lib, Sohibqiron uni qo'llamagan, deyishadi. «Zafarnoma»larda ham bu haqda ma'lumot yo'q. «Chig'atoy xoni Tug'luq Temur katta qo'shin bilan Turkistonga kelgan paytda uni Amir Temur kutib oldi (49-bet) deyilgan ma'lumot esa jiddiy e'tirozga sabab bo'lishi mumkin. Hatto «yurtidan ketmay, Tug'luq Temurga sodiq qolishga qaror qildi (shu joyda) deya ta'kidlanadi. Bu voqe'a 1360-yilda, mo'g'ul hukmdor ko'zi qonga to'lib, yurtini bosish uchun kelayotgan paytda ro'y berayapti. Ko'ngliga qasos o'ti alangalangan Temurbekning tutgan yo'li (agar muallifga ishonadigan bo'lsak) tarixiy vaziyat va o'sha davrdagi ahvola qanchalik mutanosib? Holbuki, ota vafotidan iztiroba tushgan, amakisi Hoji Barlosni Amudaryordan narigi tomonaga kuzatqi qaytg'an Temurbek vaziyatdan kelib chiqib, mo'g'ullar bilan murosa qilmasa bo'lmasligini, ularga qarshi turadigan kuch uning ixtiyorida emasligini tushunib, murosa yo'liga o'tadi. Ularning boylikka o'chligidan foydalanib, qimmatbaho sovg'alar bilan (uning ota bisotida bor edi) bosqinchilarining qabuliga tuyassar bo'ladi va ajddolari udumiga ko'ra, sipohsolor etib

tayinlanadi. Bu o'ta nozik diplomatiya, uzoqni ko'zlab qilingan usul edi. Ahvolni shunday izohlash batasiflroq va to'g'riroq bo'lardi.

Sohibqironning mashhur sho'ri Hofiz Sheroyiqa munosabati jahon tarixida shu darajadagi ikki buyuk zotning takrorlanmas muloqoti sifatida ko'p e'tirof etilganki, bu hatto turli holatlardan talqin qilingan. Har qanday sharoitda ham Amir Temur so'zni juda qadrlaydigan, tushunadigan nozik ta'b inson sifatida namoyon bo'lavergan. Ahmad Shimshirgilning yondashuvi esa o'zgacharoq: aholiga og'ir soliq solinadi va sho'ri hukmdorga nochorligidan, ya'nuncha katta soliqni to'lay olmasligidan shikoyat qilishga majbur bo'ladi. Mayli, shunday bo'lzin ham deylik, ammo talqinda baribir Sohibqironning yorqin shaxsiyatini butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Ammo o'qigach, savollar yuzaga chiqadi, qayeradir mantiq buzilgandek tuyuladi. To'g'ri, muallifning ijod erkinligi daxlsiz, qalam uning qo'lida. Ammo «ilm-fan, madaniyat homiysi» deya ta'riflangan quadrati zot bechora sho'irning mablag'iqa (ya'n soliq to'lashiga) ko'z tikmagandir.

Shu ma'noda juda ko'p talqin va ta'rif qilingan Sulton Boyazid bilan munosabatlarda ham adib o'z yurtining farzandi sifatida namoyon bo'lishga haqli. Shunday ham bo'lgan. Ikki hukmdorning yozishmalarda bo'yusunmas ichki mayllarning yuzaga chiqqani, hali biron marta mag'lubiyatga uchramagan Boyazidning o'z yurtida to'la huquq bilan so'z atya olishi mumkinligi botindan ta'kidlanadi, go'yo har qancha niyati xolis bo'lmasin, chetdan kelgan kuch mammuniyat bilan qabul qilinmaydi. Bu o'rinda

masalaning mohiyati ham keyingi o'ringa o'tadi, holbuki, ma'lum hudud emas, butun sultanatlarning manfaati o'rta tushayotgan edi. Boyazid yo'lto'sar va bosqinch'i Qora Yusuf va shakkok Sulton Ahmadni panofiga olib, ularni jazodan saqlab qolayotgan, shu qiligi bilan o'z niyatini oshkor etayotgan edi. U murosasi yo'lini

izohlaydi). Albatta, Boyazidni junbushga keltirgan omillar haqida kitobda gap ketmaydi, bu maqsad ham bo'limgandir. Bugungi tadqiqotlar shuni ko'sratyaptiki, Rim papasi boshida turgan targ'ibot mashinasining maqsadi «Yevropani zir titratgan Yildirimni boshqa bir turkiy fotih qo'li bilan to'xtatish» mumkin bo'lgan va butun sa'y-harakat shunga qaratilgan, bu targ'ibot o'z ishini qilgan...

Muallif Ahmad Shimshirgil nima bo'lganda ham Sohibqiron shaxsiga chucur hurmat bilan qaraydi. Kitobning Sohibqironning shaxsiyatini ta'riflashga bag'ishlangan bobida ham xolis fikrlarni bayon etadi. Xususan, oldingi bo'limlarning birida yirik olim, bugungi kunda sotsiologiya fanining asoschisi deb tan olingen O'rta asr tamaddunining tanqli vakili Ibn Xaldun bilan muloqotlarini samimi tasvirlab, Amir Temurning yuksak salohiyatini aniq gavdalantiradi. Ular

Valiuddin ibn Xaldun «Tarjimai hol» va boshqa asarlarida bu muloqotlar tafsilotini mufassal bayon etadi. Sohibqiron dahosiga chinakamiga maftun bo'lgan alloma ta'rifda eng ardoqli so'zlarini keltiradi. Sohibqironni «tarix ilmining otasi» deb baholaydi.

inkor etib, ko'proq maydonda jang qilish xohlayotgandi, bil'aks, Amir Temur ham hali biron marta yengilmagan sarkarda edi. Niyojat, Turon qo'shinini jangga chorlagan maktubni Ahmad Shimshirgil shunday izohlaydi: «Boyazid bu maktubga mo'tadil kayfiyatda javob yozib, sulhga rozi bo'lgandek taassurot qoldirgan...» (220-bet).

E'tiborli tarixiy manba sifatida e'tirof etilgan Ibn Arabshohning asarida esa bu vaziyat «Temur maktubidan voqif bo'lib, uning xitobi mazmunini fahmlagach, Boyazid o'nidan turib ketdi, uning g'azabi qaynab-yondi» («Amir Temur tarixi», 256-bet) tarzida qayd qilinadi va o'zining har qanday muhorabaga tayorligini ta'kidlab, toxitinarni o'rta qo'ygan maktubini yozadi (Ibn Arabshoh bu holning ma'naviy tomonlarini batasifl

o'rtaida Damashqda kechgan 35 kunlik muloqot fan tarixida ham alohida qayd etilgan. Jumladan, Valiuddin ibn Xaldun «Tarjimai hol» va boshqa asarlarida bu muloqotlar tafsilotini mufassal bayon etadi. Sohibqiron dahosiga chinakamiga maftun bo'lgan alloma ta'rifda eng ardoqli so'zlarini keltiradi. Sohibqironni «tarix ilmining otasi» deb baholaydi. Shunda Amir Temur dahosi mashhur allomadan ham ustun kelganligi ma'lum bo'ladi: olimning fikriga e'tirof bildirib, madh etishga birinchisi emas, ikkinchisi loyiq ekanini bildiradi va haq bo'lib chiqadi... Kitobda bu bahs eslatiladi, negadir Navoxudonasar qayd qilinmaydi.

«Sevgi jafosiz, kitob xatosiz bo'lmaydi» deganlaridek,

muharrir va noshirlar keyingi chop etishlarda, shuningdek, «Sayyidim, yengilayapmiz!» degan sarlavha (134-bet) matnga qanchalik mosligi (holbuki, bunday xitob bo'lman), ariqqa «otasining qadron do'sti Barlosning nomini berib, uning xotirasini abadiylashtirishni niyat qildi» (213-bet) degan gap – aksariyat barlos urug' nomi yoki yetakchi jangchi ma'nosini anglatadi, deb biladi, «Qora Yusufi» (289-bet), Xoja Yusufi (biri – azalay dushman, ikkinchisi ishonchli bek) ekanligiga izoh berish lozim bo'ladi. Negaki, allaqachon kitobxonlar aniq dalil sifatida qabul qilgan ma'lumotlar yangi ma'noda qo'llanilsa yoki foydalanilsa, ularga tushuntirish berish maqsadga muvoqifdir. Xuddi shunday jiddiy izohtalab dalil: «Ulug'bek Samarqandda voliy edi. Shohrux Mirzoning vafotidan keyin taxtg'a o'tirgan Ulug'bek poytaxtni yana Samarqandga ko'chirib, u yerda go'zal asarlar qoldiradi» (295-bet) degan gap maktab o'quvchisini ham chalg'itadiki, bu o'rinda ortiqcha tafsilot o'rinsa bo'lsa kerak. «Rum diyorlariga borishga jur'at qilmadi» (253-bet) degan gap ham bahsli. «Ojizlik aqni yo'qtadisi, nafsni o'diradi» (285-bet) – mantiq nimada? ...

Ammo ana shunday ayrim xatoliklarga qaramay, «Amir Temur» («Nasim-Kutub», 2023) kitobining fazilatlari ko'p. Unga ilova qilingan yuzga yaqin (!) foydalanilgan abadiyotlar ro'yxati muallif mavzuni yoritishga qanchalik jiddiy qaraganini ham ko'sratib turibdi. Asarda Sohibqironning Boyazid bilan yozishmalari (5 ta maktubning vaqtini va mazmuni) haqida salmoqli ma'lumotlar berilgan, raqiblarimizga dastak bo'lib kelgan «qafas» voqeasi esa batasifl sharhlangan. Bu zarur kitobni o'zbek tilida nashr etilishini tabriklagan holda butun mas'uliyatni his etib, mukammal asarlar yozish uchun ko'p izlanish, o'rGANISH lozimligini ta'kidlagan bo'lardik. Buyuk ajdodimiz haqidagi bor haqiqatlar bo'y ko'rsatayotgan ekan, kitobxonarning kuni ma'rifsiz kimsalar tomonidan Marsel Briondek obro'li odamning nomidan e'lon qilinayotgan soxta «asar»larga qolmasligi kerak. Har holda tarix haqiqatini aniq manbalardan o'rganish har tomonloma foydali.

JANOB MAS'ULLAR

AJDODLAR RUHINI CHIRQIRATMANG!

Toshkent shahrining 2000 yillik tarixi bilan bog'liq Yunusobod Oqtepa yodgorligi bugun qariyb 3 millionli poytaxt aholisi ko'z o'ngida vayron bo'imodqa. O'z davrida qariyb 100 gektarni tashkil etgan obida hududi hisobidan yillar davomida shaxsiy uy egalariga yer ajratib berilavergani natijasida bugun atigi 5 gektari saqlangan, xolos. Eng achinarlisi, bu hudud hamon xavf ostida qolmoqda.

Ma'lumki, Oqtepa qadimgi binolar qoldiqlari va arxeologik madaniy qatlamlar saqlangan tepaliklardan iborat bo'lib, bir paytalar o'zining so'lim go'shalari, bog'lar bilan mashhur bo'lgan. Hatto xorijiliklari ham ziyorat qilib, dam oladigan bu maskan bugun qarosiz holatga tashlab qo'yilgan. Yovvoyi o't-o'lanlar bilan qoplanib, odam kirishga qo'rqedigan maskanga aylandi. Oqtepa tepaligiga yondosh Ko'ktepa, Xirmontepa, Mozortepa yodgorliklari esa allaqachon tekislaniib, o'rniqa zamoniaviy uy-joylar qad rostlagan.

Afsuski, ushbu holatdan na shahar ma'muriyatni, na tegishli idoralar, hatto Madaniyat va turizm vazirligi mutasaddilar ham xulosa chiqarmaytilar. To'g'ri, «Milliy tiklanish» demokratisat partiyasi ushbu masalani bir necha yildan buyon kun tartibidan tushirmay keladi. Partiyaning Toshkent shahar Kengashi raisi, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati Otabek Jiyabayev boshchiligidagi deputatlik guruhi partiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda «Oltin mero» xayriya jamaoa fondi bilan hamkorlikda yodgorlikni saqlab qolish masalasini muntazam ko'tarib keladi. Tegishli idoralar bilan hamkorlikda V-VI asrlarga tegishli Yunusobod Oqtepa yodgorligining tarixiy-madaniy qimmati va noyobligini saqlagan holda konservatsiyalash bo'yicha loyiha ham ishlab chiqqigan.

Toshkent shahar Kengashining o'tgan yilning aprelida bo'lib o'tgan sessiyasida shahrimizdagi madaniy meros obyektlarini munosib asrash,



„...Yurtimizning qayerini kavlamang, tariximizi ko'rsatuvchi ashylar chiqadi. Biz esa ularning qadriga yetish o'rniqa, o'z qo'limiz bilan yakson qilyapmiz. Zudlik bilan bu masalaga nuqta qo'yishimiz kerak. Aks holda ajodolarimiz ruhini chirqiratamiz...“

jumladan, Yunusobod Oqtepa yodgorligini tarixiy-madaniy qimmati va noyobligini saqlagan holda konservatsiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha atroflicha muhokama qilingan edi. Sessiyada jamoat fondi rahbari Mirqul Karimov tomonidan Oqtepa tarixi va uning bugungi holati haqidagi keng ma'lumotlar berildi. Uni asrabayvaylash bo'yicha qilinadigan ishlar loyihasi taqdим qilindi. Mutaxassislar tomonidan arxeologik yodgorlikning ayni vaqtida tarixiy-madaniy qimmati va noyobligini saqlagan holda konservatsiyalash uchun 20 milliard so'm mablag' zarurligi hisob-kitob qilingani ham aytildi.

Sessiyada so'zga chiqqan Qatag'on qurbanlari xotirasidavlat muzeyi direktori Baxtiyor Hasanov tarix cho'pchak yoki o'tmishdan qolgan ertaklar emasligi, tarixi bu haqiqiy faktlar ekani, ajodolarimiz bosib o'tgan yo'llarni, kimligimiz va kimlarning avlodni ekanimizni bilishimiz, ko'sratishimiz uchun Oqtepaga o'xshagan obidalarni saqlab qolish shartligini ta'kidladi.

— Yurtimizning qayerini kavlamang, tariximizi ko'rsatuvchi ashylar chiqadi. Biz esa ularning qadriga yetish o'rniqa, o'z qo'limiz bilan yakson qilyapmiz. Zudlik bilan bu masalaga nuqta qo'yishimiz kerak. Aks holda ajodolarimiz ruhini chirqiratamiz, — degan edi deputatlarga qarata muzey direktori.

Sessiyada Oqtepaning bugungi holati bilan tanishgan senatorlar, boshqa partiyalardan saylangan deputatlari ham so'z olib, nafaqat Toshkentning tarixi bilan bog'liq bu obida, boshqa ko'plab tarixiy inshootlar ham bugun ayanchli holatda ekani, ushbu masalani ko'targan «Milliy tiklanish»ga minnatdorlik bildirib, loyihami qo'llab-quvvatlanan edilar. Albatta, deputatlardan uchun kattagina mablag' talab qiladigan ushbu masalani sessiyaga kiritish oson bo'lmagandi o'shanda. Hatto senat a'zolari, boshqa partiya deputatlari, mutaxassislarini Oqtepaga olib borib, real vaziyat bilan tanishtilrilgandi. Obidaning bugungi holatini ko'rib, ular ham tarixa bo'lgan bunday hurmatsizlikdan hayratda qolgandilar...

Hatto bu masala sobiq ittifoq davrida, ya'ni 1988-yilda ham shahar deputatlari tomonidan ko'tarilgan, qarorlar qabul qilingan, lekin ijrosi ta'minlanmagan ekani. Shu o'rinda sessiyada so'zga chiqqan senatorlarning nafaqat Toshkentning tarixi bilan bog'liq bu obida, balki boshqa tarixiy inshootlar ham bugunga kelib ayanchli holatda ekani haqida borgi organ bejiz emas. O'tgan yili partiya Toshkent shahar Kengashi tomonidan poytaxtdagi mavjud 356 ta madaniy meros obyektlari o'rganilganda ularning 23 tasi yo'qolib ketish arafasida ekani aniqlangan edi. O'sha sessiyadan bir hafta o'tar-

o'tmas, Toshkent shahrining o'sha paytdagi hokimi Jahongir Ortioxo'jayev imzosi bilan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining qarori imzolandi. Unda Yunusobod Oqtepa yodgorligini tarixiy-madaniy qiymati va noyobligini saqlagan holda konservatsiyalash bo'yicha taklif ma'qullangan, bu ishlarni loyihalashtirish va buyurtmachi tashkilotni belgilash, sarf-xarajatlar smetasini ishlab chiqish bo'yicha topshirilgan berilib, mas'ullar belgilangandagi Ushbu qaror bilan tanishib, niyoyat Yunusobod Oqtepa yodgorligini saqlab qolinadigan bo'ldi, deya o'ylab OAV jar soldi. Lekin chuchvarani xom sanagan ekanmiz. Oradan bir yildan ko'p vaqt o'tdi hamki, qaror 1988-yildagi kabi bajarilmadi.

Toshkent shahar Madaniy meros boshqarmasini tomonidan shu yilning 3-may sanasida taqdим qilingan ma'lumotnomasi bilan tanishib, hokimlik shahar tarixiga umuman bee'tibor emas ekan, bekorga ayblayotgan ekanmiz, degan xulosaga ham kelmoqchi bo'ldik. Biroq... Toshkent shahar Madaniy meros boshqarmasining ma'lum qilishicha, o'tgan yili Toshkent shahridagi 6 ta madaniy meros obyektlarini restavrasiya va konservatsiya qilish uchun 23,6 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, hozirda 3 ta obyektda, jumladan, Langar ota, Azlarxon Eshon masjidji va Muqumiyy nomli misqali drama teatrida 1,1 milliard so'mlik

ishlar (4,7%) bajarilgan. Knyaz Romanov saroyi, Zamonaviy san'at markazi, Abulqosim Eshon madrasasida esa qurilish ta'mirlash ishlari boshlangan. Bundan tashqari, 2022-yil davomida 10 ta madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan. Jumladan, Toshkent shahri 2200 yoshini belgilashda imkon beradigan Yangihayot tumanidagi «Shoshtepa» arxeologik yodgorligini rekonstruksiya va konservatsiya qilish uchun 16177,7 million so'm hamda Toshkent shahridagi 10 ta ta'mortalab madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish uchun 19468,0 million so'm mablag' ajratilishi yuzasidan «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasiga 10 ta madaniy meros obyektni restavratsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha bosh loyihami va pudratchilarini aniqlash, obyektlarni muhandislik kommunikatsiyalariga ulash bo'yicha davlat xizmatlari ko'satish markazlari tomonidan tegishli ruxsatnomalarni olish, obyektlarni loyihalash, pudrat ishlariiga talab etiladigan mablag'larni moliyalashtirilish yuzasidan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashiga taklif kiritish vazifalarini yulitigan.

Shuningdek, shahar hokimiga Yunusobod Oqtepa arxeologik yodgorligini rekonstruksiya va konservatsiya qilish uchun 19913,0 million so'mlik loyha hujjatlari tayyorlanib, mablag' ajratish bo'yicha murojaat qilingan. Madaniy meros boshqarmasi tomonidan taqdimg etilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, bu boradagi ishlar qoniqarli emas.

O'tgan yili Toshkentdagidagi 10 ta madaniy meros obyektni restavratsiya qilish va ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan. Amalda esa ularning hech biri bajarilmagan. Bajarilayotganlari ham chala. Yunusobod Oqtepasi bilan bog'liq ishlar bo'yicha esa endi murojaat qilingani aytildigan, xolos.

Yaqinda partiyaning Toshkent shahar Kengashida deputatlari va tegishli idora rahbarlari ishtirotida o'tgan yig'ilishida Yunusobod Oqtepasi masalasi yana ko'tarildi.

So'zga chiqqan mas'ullar Yunusobod Oqtepa tarixiy yodgorligining bugungi kungi holati, yodgorlik joylashgan maydonning fuqarolar tomonidan o'zlashtirilib, chegara panjaralarini o'zboshimchalik bilan almashtirilayotgani keskin tanqid qilinib, ushbu masalani yana xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi sessiyasiga kiritish masalasi muhokama qilindi. Bu borada partiya faollari va deputatlardan iberot ishchi guruhi tuzilib, ushbu masalani uzil-kesil hal qilishga kelishib olindi.

Xullas, gap ko'p. Amaliy ishlar esa yo'q hisobi. Eng yomoni, Toshkent shahridagi mas'ullar «bajarilmogda», «rejalashtirilmogda», «takliflar tayyorlanmolmoqda» degan gaplardan nariga o'tishmayapti. Poytaxting Oqtepasiqa o'xshagan tarixiy yodgorliklari esa yildan yilga nurab, aholi tomonidan egallab olimoqda.

Natijasiz harakatlardan ko'rinish turibdiki, mahalliy Kengashdagi deputatlarimizning ushbu masalaga uzil-kesil nuqta qo'yishga «tishi» o'tmayapti. Shu bois, Yunusobod Oqtepa masalasiga partiyamizning Oly Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi a'zolari kirishishi, kerak bo'lsa, parlamentga Madaniyat va turizm vaziri Ozodbek Nazarbekov boschiligidagi mas'ullar, shaharning yangi hokimi Shavkat Umurzoqovni chaqirib, so'roqqa tutishi, uning zimmasisiga qat'iy vazifalar qo'yishi lozim. Aks holda, yuqorida ta'kidlanganidek, ajodolarimiz ruhi chirqiraydi.

**Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbirini**



Tahilchilar hisobiga ko'ra, har yili jahonda 7 000 000 kiyim-kechak chiqindiga tashiansa, ulardan 12 foizigina qayta ishlalar ekan. Shu kabi raqamlar dunyoda tabiiy ravishda chiqindilarni qayta ishlash va ularning utilizatsiyasi bilan bog'liq muammolar ko'lamli oshayotganiga ishora qilmoqda. Bir kunlik chiqindi miqdori, dunyo aholisining bir kunlik o'sish koefitsiyentidan ko'pligi ham ekologiya himoyachilarini xavotirga solmoqda.

B

ugun xitojliklar oddiy chiqindini qayta ishlash orqali milliardlab daromad olayotgan bo'lsa, ko'plab mamlakatlar bu boradagi muammolarga samarali yechim topa olganicha yo'q. Buning naqadar og'ir kechayotganini har yili dunyo okeaniga tashlanadigan axlat miqdori u yerdag'i baliqlarning og'irligidan uch baravar ko'p ekanligidan ham ko'rishimiz mumkin. Afsuski, chiqindilarni butunlay yo'qotib bo'lmaydi. Ammo uni qayta ishlash, chiqindilarni tashlashda madaniyatli bo'lish orqali kelajakda katta ifloslanishlarning oldini olish mumkin.

Mamlakatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, tabiy resurslardan oqilone foydalananish, shuningdek, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash sohasida izchil siyosat amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019 – 2028-yillarga mo'ljallangan qattiq maishiy chiqindilarni bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi qabul qilingan. Shuningdek, Davlatimiz rahbari tomonidan «Maishiy va qurilish chiqindilarni bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi qaror imzolandi. Mazkur muhim hujjat asosida tizimga davlat-xususiy sherlikli loyihalari amaliyotga tatbiq etilib, davlat korxonalaridagi chiqindi klasterlari uchun zarur bo'lgan texnik jihozlar tadbirkorlarga 7 yilga muddatli to'lov asosida berildi.

Respublikamizda «Sanfa Products» kompaniyasi birinchilardan bo'lib klaster tizimi asosida plastik chiqindilarni qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlash chiqargan va eksportga yo'naltirgan kompaniyalardan biri hisoblanadi. Hozirda mazkur kompaniya tomonidan bir yilda 2000 tonna plastmassa idishlarni qayta ishlash natijasida linoleum uchun asos, avtoyo'llar, gidroinshoottlarning qurilishi uchun zarur geotekstil, polimer geomembrana, yengil sanoat uchun sintepon kabi mahsulotlar ishlab chiqarilmogda.

Shunday korxonalaridan yana biri Surxondaryo viloyatiда

joylashgan «Bio Texno Eko» korxonasi bo'lib, yillik quvvati 180 ming tonna, bir sutkada 500 tonna maishiy chiqindini saralab, qayta ishladi. Sellofan, plastik, plastmassa kabi maishiy chiqindilardan granulalar, polietilen quvurlarni ishlab chiqaradi.

Ko'rinish turibdiki, davlat chiqindilar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yuzasidan o'z mas'uliyatini bajarayapti. Amano, jamiyatimizda hamon chiqindi bilan «ishlash» ko'nikmasi juda sekin shakllanyapti. Ko'pchilik yurdoshdarlarimiz haliyam, chiqindini «istagan joyimga tashlayman» aqidasidan voz kechgani yo'q. Buni har kuni yo'l chetiga uloqtirib ketilayotgan chiqindilar uyumidan ham ko'rishimiz mumkin.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda. Shimoliy Evropa mamlakatlarida, allaqachon, chiqindilarni alohida yig'ish yo'la qo'yilgan, natijada qog'oz, plastik, alyuminiy kabi xomashyoning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi.

Kuzatuvlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda chiqindini boshqarish tizimi xususiy sektorlar ixtiyoriga berilgan. Masalan, Xitoya chiqindi bilan shug'ullanuvchi millioner tadbirkorlar bor. Ular aynan chiqindi biznesi bilan ham o'z oilasi, ham davlat iqtisodiyotiga foyda keltirayapti.

Tarixiy manbalarda a munitsipal darajadagi ilk chiqindixonalar eramizdan avvalgi 400 yilda Afinada tashkil etilgan bo'lib, chiqindilar maxsus savatga solinib, shahar tashqarisiga chiqarib tashlangani, bu tajriba Rima ham qo'llanilgani qayd etilgan. Shuningdek, o'rta asrlarda Yevropada chiqindi va axlatlarni ko'chalarga tashlab ketilishi oqibatida turli o'latlar kelib chiqaverga, chiqindilarni maxsus idishlarga solish, ko'chalarini tozalash masalasiga e'tbor qaratilgan.

Xavotirga kelib ishlab chiqarish rivojlangani sayin,

faqat ovqat qoldiglari emas, karton, plastik, kimyoiviy va tibbiy jihozlar, kiyim-kechaklar kabi chiqindi turlari ko'payib, ularni yo'q qilish tartibi o'zgarmay qolmoqda. Chiqindilarni ko'mish, okeanga uloqtirish yoki yoqib yuborish «amaliyoti» hamon davom etayapti.

Aytish joizki, ko'plab mamlakatlarda bu muammoning turlicha yechimlari topilgan. Masalan, Shveysariya qo'shni davlatlardan chiqindilar import qilish hisobiga issiqlik elektr stansiyalarining muttasil ishlashini ta'minlaydi. Bu borada Yaponiya aholisi chiqindilarni yonadigan va yonmaydigan turga ajratgan holda, axlatga tashlasa, pekinliklar ertalabdanqo uylaridan chiqqan keraksiz buyumlarini maxsus chiqindi yig'uvchilarga pullashadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Gana poytaxti Akkra yaqinida yer yuzidagi eng yirik elektronika chiqindixonasi bor. Atlantika okeani sohilidagi Agbosblosi chiqindixonasiga dunyoning turli burchaklaridan buzuq maishiy texnikalar olib kelinsa, Hindistonidagi Alang shahri kemalar qabristoni, deya nom olgan. Bu yerda minglab yuk va yo'lovchi kemalarini uchrashishing mumkin. 20 yil ichida bu yerda butun dunyodan olib kelining 6500 dan ortiq kema bo'laklarga bo'lingan. Rasmiy manbalarda qayd etilishicha, bir yilda bu yerda o'rtacha 40 kishi kimyoiviy moddalar tasaodiy yong'inlar oqibatida vafot etadi.

Kuzatgan bo'lsangiz, ijtimoiy tarmoqlarida Ispaniyalik rassom Franchesko de Paxaro jahon bo'yab saysi qilish asnosida chiqindilardan ko'rgazmalar tashkil etmoqda. Rassom shahar ko'chalaridan topib olgan chiqindilardan san'at asarlari yaratadi. Bu bilan odamlarga bu borada madaniyatli bo'lish kerakligini so'zsiz ugtrishga urinadi. Bizda ham shu kabi tashabbuslar qol'lab-quvvatlanishi shart! Chunki dunyo mamlakatlарини xavotirga solayotgan chiqindi muammosi bizga ham begona emas.

**Mahbuba KARIMOVA,
«Milliy tiklanish» muxbirini**

Raqamlarda qayd etilishicha, Buxoro viloyatidagi 829 ta madaniy meros obyektidan 530 tasi Eski shahar qismida joylashgan. Shundan, 139 ta obyekt sayyoohlar eng ko'p boradigan joylar sanaladi. 130 ta yodgorlikning YUNESKONING jahon meroslari ro'yxatiga kiritilgani esa xalqaro turizm manzarasida O'zbekistonning maftunkor imjini ko'rsatib turibdi.

1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi YUNESKO shafeligidagi xalqaromiqyosda nishonlandi. 2002-yilda esa «Buyuk ipak yo'lida turizm to'g'risida Buxoro deklaratsiyasi» qabul qilindi.

MEROS

BUXORO TURIZM MANZARASI



Shavkat BOBOJONOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori



Tarixiy manbalarda XX asr boshlariga qadar Buxoroda 360 ta masjid, 200 ta madrasa, 20 ta minor, 67 ta karvonsaroy, 103 ta hovuz, 6 ta savdo toqi bo'lganligi keltirilgan. Shuningdek, Abdulkarim as-Samoniying «Nasabnoma» asarida ham VIII-XII asrda yashab o'tgan 500 nafarga yaqin muhaddis, shayx, imom, mufty, faqih, mufassirlar haqida to'xtalib o'tilgan. Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning Buxoro mozorlari zikriga bag'ishlangan «Tarixi Mullozoda» asarida VIII asrdan XV asrgacha bo'lgan davrlarda yashab o'tgan. Buxoro shahri va uning atroflarida dafn etilgan 150 dan ortiq ulamolar, tarixnavislar, shoirlar, olimlar va hukmdorlar qabrlarining aniq o'rnini to'g'risida hikoya qilingan. Hatto, Marko Polo va Ibn Battuta kundaliklari Buxoroda tabarruk ziyoratohlarning ko'pligi sabab qadimiy kent «yuksak ulug' vorlik shahri» deya ta'riflangan.

Bugungi kunda 105 ta masjid, 31 ta madrasa, 9 ta minor, 15 ta karvonsaroy, 4 ta saido chorsusi va boshqa imoratlar saqlanib qolning vohaning boy madaniy merosi mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab xalqaro darajada o'rganilib, muhofaza etila boshlandi.

O'zbekiston Jahon sayyoqlik tashkilotiga 1993-yilda a'zo bo'lgan edi. 1996-yilga kelib tashkilot Buyuk ipak yo'l'i mamlakatlarning madaniy merosi saqlash bo'yicha seminarini Buxoroda o'tkazdi. 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi YUNESKO shafeligidagi xalqaro miqyosda nishonlandi. 2002-yilda esa «Buyuk ipak turizm to'g'risida Buxoro deklaratsiyasi» qabul qilindi.

Hozirda Buxoroda 500 dan

ortiq ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar bor. Xususan, 500 gektarlik Eski shahar qismida 83 ta ziyoratgoh saqlanib qolning. Mayjud obyektlarning barchasida infrazilmani yaxshilash yo'lida olib borilayotgan harakatlar ziyorat sayyoqligi obyektlari yo'nalishini kengaytirish imkonini beradi.

Buxorodagi Naqshbandiya tariqati vakillari qabrlarini ziyorat qilishni o'z ichiga olgan «Yetti pir» etimologiyasi bugun xalqaro brend darajasiga ko'tarilib, hududning tashrif qog'oziga aylandi.

«Vatanga qaytish», «ildizlarga qaytish», «ot'mishga sho'ng'ish», «qo'msash» nomlari bilan ataluvchi sayyoqlikning maxsus turlari «Ildizlar turizmi» nomi bilan mashhur bo'lib, unda ziyoratchilar o'zlarining ijtimoiy, diniy, madaniy, milliy va etnik o'zligi haqida ko'proq bilishni xohlashadi. Shuning uchun otabobolari, ularning o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan joylarni ziyorat qilishiadi. Ayni shu yo'nalish orqali dunyo naqshbandiyalarini bir zaminga jamlash, tariqat a'zolarining Buxoroni ziyorat qilish imkoniyatini kengaytirish, ilmiy-ma'rifiy muhitni shakllantirish maqsadida Naqshbandiya turizm festivali yo'liga qo'yildi.

2018-yilda Buxoroda Kuala-Lumpurdagi O'zbekiston elchixonasi ko'magida Jahon So'fiy markazi «World Sufi Centre» (Malayziya) tomonidan III Naqshbandiya turizm festivali yuqori darajada o'tkazildi. 2023-yildan boshlab har yili aprel oyida Buxoroda mazkur festivalni mutazam o'tkazish belgilangani ziyorat sayyoqligi rivoji uchun muhim asos bo'layotdi.

Ma'lumki, Singapurda an'analiv tarzda o'tkaziladigan «O'zbekiston Travel» summitida MasterCard va CrescentRating tashkilotlari tomonidan har yili 140 ta yo'nalish bo'yicha «Jahon musulmon sayohati indeksi» xalqaro reytingi e'lon qilinadi. Yurtimiz unda 2018-yilda 32-o'rindan, joriy yilda esa kuchli o'ntalikdan joy oldi. Mazkur etirofga mamlakatimizning islam dini bilan bog'liq boy merosni o'rganish va xalqaro miqyosa ommalashtirish, sayyohlarga ochiqlik siyosati, yaratilgan imkoniyatlar asosiy sabab bo'lgan. Ayniqsa, 2020-yilda ISESCO tashkiloti tomonidan Buxoro

300 mln.ga yaqin kishi ziyoratga chiqadi, shundan 40 mln.i (15-20 foiz) musulmonlardir. AQSH'dagi Pew Research Center tajiqqot markazining qayd etishicha 2050-yilga borib dunyoda musulmonlar 2 761 480 000 (29,7foiz) kishini tashkil etadi va bu yirik ziyorat sayyoqligi bozori degani. Ayni shu bozorda o'z o'rniiga ega bo'lish uchun yurtimizda halol standartlari joriy qilinmoqda.

Chunki, bugun «Halol turizm» musulmon ziyoratchilarining jaib qiluvchi asosiy vosita bo'lmoida. Bunda ta'lim olish, tijorat yoki sayohat barchasi diniy ko'rsatmalariga riyoja etilgan holda amalga oshirilsagina halol turizm shoslanadi.

Darvoqe, Buxoroda indoneziyaliklar bilan hamkorlikda respublikada yagona «O'zstandart» agentligining «Halol» sinov laboratoriysi ishga tushirildi. «Yetti pir» ziyoratgohlarida halol talablariga javob beradigan Poykent Bukhara brendi ostida mehmomonalar qad rostladi.

Ma'lumki, Singapurda an'analiv tarzda o'tkaziladigan «O'zbekiston Travel» summitida MasterCard va CrescentRating tashkilotlari tomonidan har yili 140 ta yo'nalish bo'yicha «Jahon musulmon sayohati indeksi» xalqaro reytingi e'lon qilinadi. Yurtimiz unda 2018-yilda 32-o'rindan, joriy yilda esa kuchli o'ntalikdan joy oldi. Mazkur etirofga mamlakatimizning islam dini bilan bog'liq boy merosni o'rganish va xalqaro miqyosa ommalashtirish, sayyohlarga ochiqlik siyosati, yaratilgan imkoniyatlar asosiy sabab bo'lgan. Ayniqsa, 2020-yilda ISESCO

2023

-yildan boshlab
Buxoro shahrida
iyul oyida
Imom al-Buxoriy
tavalludiga
bag'ishlab hadis
ilmini o'rganish
bo'yicha xalqaro
simpozium
o'tkazish
belgilangani
xalqaro
tadbirning muhim
natijalaridan biri
bo'ldi.

shahri Islom olami madaniyati poytaxti, deb e'lon qilinishi vohaga ziyoratchi va sayyoohlarni jaib etishda katta qadam bo'ldi.

Hozirda Buxoroning ziyorat sayyoqligi salohiyatini xorijda manzilli targ'ib etish maqsadida «Yetti pir» ziyoratgohlari Rossiya davlatlariga targ'ib qilindi. Natijada, vohaga tashrif buyuruvchi xorijiy ziyoratchilar soni va salmog'i oshayotir. Jumladan, 2017-yilda 169 ming, 2018-yilda 301 ming, 2019-yilda esa 603 ming xorijiy sayyo va ziyoratchilar Buxoroga tashrif buyurdi. Sayohatdan so'ng, rossiyalik va amerikalik sayyoohlarga shaharda o'rta asr ruhi, tarixi davrni his qilinani e'tirof etishga bo'lgan. Musulmon ziyoratchilar «Yetti

pir» ziyoratgohlaridan ruhiy, ma'naviy kuch olish barobarida islam me'morchiligidan zavq olishganini ta'kidlashadi.

Kelgusida viloyatga ziyoratchilar oqimini keskin oshirish bo'yicha xalqaro doiradagi istiqbolli rejalar va yo'l xaritalari ishlash chiqilmoqda. Xususan, Buxoroga Dubay, Jakarta, Kuala-Lumpur, Lahor, Dushanbe shaharlaridan to'g'ridan to'g'ri va charter reyslarni yo'lg'a qo'yish rejalashtirilgan. Shuningdek, Turkiyaning «Atlasglobal Airlines» aviakompaniyasi tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida 50 ta aviareysni amalga oshirish orqali O'zbekistonga 10 mingdan ziyorat sayyoohlarni jaib qilish ko'zlanmoqda. Ayniqsa, «EMIR» Danismanlik kompaniyasi tomonidan «Yetti pir» ziyoratgohlarini bir-biriga bog'lovchi elektralashtirilgan temir yo'l qurish loyihasi bu borada yirik xalqaro loyihalardan bira sanaladi.

Buxoroda «Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi» doirasida o'tkazilgan «O'zbekiston islam merosi konferensiysi» hamda «Mir arab madrasasi bitiruvchilar» forumi yakunida ziyorat sayyoqligini jadal rivojlantirish borasida qator kelishuvlarda erishildi. 2023-yil iyul oyidan boshlab Buxoro shahrida Imom al-Buxoriy tavalludiga bag'ishlab hadis ilmini o'rganish bo'yicha xalqaro simpozium o'tkazish belgilangani xalqaro tadbirning muhim natijalaridan biri bo'ldi. Sharif kent esa yana bir bor dunyoga ochiq shahar, sayohatlar chorrasi, ziyorat sayyoqligi markazi sifatida o'zini namoyon etdi.

“

16 kun davomida 13, 9 va
4 yoshli bolalar nafaqat o'z
kuchlari bilan tirik qolishga,
balki hali bir yosha
to'Imagan chaqaloq
hayotini ham saqlab qolishga
muvaffaq bo'lishgan.


Google

FOYDALANILMAYOTGAN AKKAUNTLAR O'CHIRILADI

Google vitse-prezidenti ikki yil davomida foydalanimayotgan akkauntlarni o'chirish rejalari haqida ma'lum qildi. Yangilik Google Workspace, YouTube va Google Photo'ga tatbiq etiladi. Foydalanuvchilarning faqat shaxsiy hisoblari o'chiriladi. Undan oldin ularning egalariga shaxsiy va zaxira pochtalariga bildirishnomalar yuboriladi.

G7

CANADA
FRANCE
GERMANY
ITALY
JAPAN
UNITED KINGDOM
UNITED STATES



«KATTA YETTILIK» NING MUHIM QARORI

G7 davlatlari mintaqaviy muammolarni hal qilishda Markaziy Osyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish niyatida. Bu haqda "Katta yettilik" yetakchilari Yaponiyadagi sammitda ma'lum qildi. Ular mintaqasi bilan savdo va energetika aloqalarini mustahkamlash, Transkaspiy xalqaro transport yo'nalishini qo'llab-quvvatlash niyatlarini borgilini ta'kidlashgani.

YOSHLAR ENDI TIK TOKKA KIROLMAYDI



AQSHning Montana shtatida TikTok butunlay ta'qilandi. Gubernator bu qarorini «rezidentlarning shaxsiy ma'lumotlarini Xitoy Kommunistik partiyasidan himoya qilish» bilan izohladi.



AYOLLAR KOINOTNI ZABT ETYAPTI

SpaceX o'z faoliyatidagi ilk fazogir ayolni koinotga uchirdi. Saudiya Arabistonidan Xalqaro kosmik stansiyasiga yo'l olgan ilk ayol-fazogir o'zak hujayralarni o'rjanuvchi biolog olim Rayyona Barnaviy bo'ldi. Parvoz 21-may kuni Falcon 9 kosmik kemasida amalga oshirildi.




SONGIGI 100 YILDAGI ENG KUCHLI SUV TOSHQINI

Italiyaning ba'zi hududlarida yarim yillik norma 3 kunda yog'ishi natijasida 23 ta daryo o'zanidan chiqib ketdi. Ushbu ofatdan 14 kishi halok bo'ldi, 27 ming aholi ko'chirildi. 36 mingga yaqin odam boshpanasiz qoldi.

SAUDIYA ARABISTONIDA FUTURISTIK AEROPORT QURILADI

Terminal ichida ichki mikroiqlimga ega ozais yaratish rejalashtirilgan. Qurilish 2023-yil oxirigacha yakunlanishi kutilmoqda.



NOMA'LUM PORTRETLAR TOPILDI

Rembrandtning ikkita portreti 200 yildan keyin britaniyalik oilanining shaxsiy kolleksiyasidan topildi.

Portretlar Amsterdam va Nyu-Yorkdagagi muzeylarda namoyish etiladi, so'ngra Londondagi Christie's aukcionida sotiladi. Rasmlarning taxminiy narxi 5 dan 8 million fungtacha.

4 NAFAR BOLA 16 KUN O'RMONDA QOLIB KETDI

Kolumbiya o'rmonlarida samolyot halokatidan keyin to'rt nafar bola 16 kun yashab tirik qoldi. Ularning eng kattasi 13 yoshda, eng kichigi 11 oylik. Ular Cessna 206 samolyotining yo'lovchilarini bo'lgan. Barcha kattalar: uchuvchilar va to'rt farzandning onasi halok bo'lgan.

Yosh sayohatchilar samolyot halokatga uchrugandan so'ng yordam kutmaslikka qaror qilib, odamlarni qidirishgan. 16 kun davomida 13, 9 va 4 yoshli bolalar nafaqat o'z kuchlari bilan tirik qolishga, balki hali bir yosha to'Imagan chaqaloq hayotini ham saqlab qolishga muvaffaq bo'lishgan.

Internet ma'lumotlari asosida Feruza XODJAYEVA tayyorladi.

STATISTIKA


Statistika agentligi ma'lumotlariiga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilning yanvar-aprel oylarida 9 ta xorijiy davlatdan qiymati 81,3 million AQSH dollariga teng bo'lgan 2 ming 544 dona elektromobil import qildi.

Elektromobillar importi o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 ming 815 taga oshgan. Joriy yilning aprel oyida xorijiy davlatlardan 876 dona elektromobil import qilindi.

O'zbekiston 4 oyda eng ko'p elektromobil import qilgan davlatlar Xitoy – 2 278 ta, Gonkong – 202 ta, Germaniya – 32 ta, BAA – 16 ta, Koreya – 9 ta, AQSH – 4 ta

O'ZA

4 OYDA 2500 DAN ZIYOD ELEKTROMOBIL



JUR'ATSU kengash

YOXUD NOBEL

NASIB ETMAGAN YOZUVCHI

1895

-yil 27-noyabrda
Parij shahrida
Alfred Nobel
tomonidan
olamshumul
vasiyatnomma
vasiyatnomma
yozildi. Unga
ko'ra, Nobel nomi
bilan yuksak
mukofot joriy
etilishi va u fizika,
ximiya, tibbiyot
sohalari qator
adabiyotning yetub
vakillariga ham
berilishi qayd
etiladi.

Adabiyot, teatr va kino
rivojlantishiga ulkan hissa
qoshgan, qator xalqaro mukofotlar
sohibi, Qirg'iziston Qahramoni
Chingiz Aytmatov nomi bir necha
bor Nobel mukofoti komitetida
ko'rib chiqilgan bo'lsa-da,
yozuvchiga bu mukofot nasib
etmad. O'rinali savol tug'iladi:
Chingiz Aytmatov bu mukofotini
olishi mumkinmid?

Biyuk adib va jamaot arbobi
Chingiz Aytmatov nafaqat qirg'iz
xalqi, shuningdek, butun turkiy
mamlakatlari, jumladan, o'zbek
xalqi uchun ham aziz va qadri
siyosha. Yozuvchi mintaqamiz
tinchligi va osyoishtaligi,
uning kelajagi va ravnaqi,
xalqlarimiz o'tsasida do'stlik va
hamjihatlikni mustahkamlash,
ularni turli ziddiyat va qarama
qarshiliklardan asrash yo'lida
fidokorona faoliyat olib borgan.
O'tgan asrning 80-yillarda sobiq
markaz tomonidan uyushtirilgan
«o'zbek ishi», «paxta ishi» kabi
nohaq siyosiy kampaniyalar
chog'ida Chingiz Aytmatov
adolat va haqiqat kuchisi sifatida
xalqimizning sha'ni va obro
e'tiborini katta minbarlardan
turib mardonha himoya qilganini
el-yurtimiz hamisha minnatdorlik
bilan eslaysdi. Betakror ijdorkorning
davlatimiz tomonidan «Do'stlik»
va «Buyuk xizmatlari uchun»
ordenlari bilan taqdirlangani ham
shundan dalot beradi.

Mashhur adib, jamaot
arbobi, dunyoda tinchlikni
mustahkamlash, inson
qadriyatlarini himoya qilish
va xalqaro munosabatlarni
rivojlantirishga katta hissa

qo'shgan Chingiz Aytmatov
asarları 174 ta tilga tarjima
qilingan bo'lib, ularning umumiy
tiraji 80 millionni tashkil etadi.
1960 – 2000-yillarda Chingiz
Aytmatov faol ijtimoiy xalqaro
faoliyatda bo'ldi. 1986-yilda u
Issiqko'l forumiga asos soldi.

Yozuvchi Aytmatov bir emas,
ikki Nobel mukofoti olishi
mumkin edi: biri jahon adabiyoti
faniga qo'shgan hissasi uchun,
ikkinchisi jahonda tinchlikni
mustahkamlashga qo'shgan
hissasi uchun. Chunki XX asrning
80-yillari qayta qurish davrida
jamoatichilik ongida fikrashuning
yangi siyosiy qarashlarini joriy
etishga va mustahkamlashga
dunyodagi siyosiy va eng
muhim progressiv o'zgarishlarga
Chingiz Aytmatovning ta'siri
katta bo'lgan. Sobiq ittifoqning
adabiyot institutlari, turkiyabzon
mamlakatlar prezidentlari,
nufuzli xalqaro tashkilotlar
tomonidan uning nomzodi Nobel
mukofotiga ko'p bora tavsiya
etilsa ham, mukofot berilmadi.
Buning u yaratgan badiiy
adabiyotlarga va jahonda tinchlik
o'rnashishga qilgan harakatlari
aloqasi bo'limgan subjektiv
va obyektiv sabablari bor edi.
Ayrim faktorlar Nobel mukofotiga
nomzodlarni aniqlash tarixida
kamchiliklar va nohaqliklarni
keltirib chiqaradi. Masalan,
Nobel mukofotiga Aytmatovde
zabardast yozuvchilar emas, balki
o'tramiyona yozuvchilar loyiq
ko'rilgan holatlar ham bo'lgan...

Chingiz Aytmatov bu
mukofotga loyiq ko'rilmagani
borasidagi tahlillar Aytmatov
Nobel mukofoti komitetining
«o'ziga xos» talablariga to'liq
javob bermagan bo'lishi mumkin,
degan taxminni keltirib chiqaradi.
Nobel komiteli nizomida
mukofot olish bo'yicha o'ziga
xos chegaraviy normalar bo'
ekani, bu normalarga ko'ra
Aytmatov nomzodi qancha
ko'rsatilsa ham, u hech qachon
Nobel mukofoti ololmasdi.
Chunki yozuvchi to'g'ridan
to'g'ri sovet tuzumidagi negativ
holatlarni tangid qilgan bo'lsa
ham, hukumatning ashaddiy
dushmani yoki hukumatga qarshi
oppozitsiyada bo'limgan. Yana

Aytmatov oliy davlat organlari
a'zosi (Markaziy Komitet, Oliy
Sovet, Yozuvchilar soyusi, Davlat
mukofotlash Komiteti) sifatida,
Beniluks, Belgiya, Niderlandiya,
Luksemburg davlatlarida, Fransiya,
YUNESKO, NATODa elchi kabi lavozimlarda faoliyat
yuritgan. Shuning uchun ham
Chingiz Aytmatov nomzodi
tasdiqlanmagan degan, qarashlar
mayjud.

Alfred Nobel o'z vasiyatida
mukofot nominatsiyalarini
qayd etib, mukofot «siyosiy va
ideologik dunyoqarashga
ham ega bo'lishi kerak. Yana
bu qarashlar Shvetsiya Qirollik
akademiyasi a'zolari pozitsiyasiga
ham to'g'ri kelishi kerak...»

Nobel komiteli nizomi bo'yicha
nomzodlarni faqat Shvetsiya
akademiyasi yoki oliy o'quv
yurti til va adabiyot professorlari,
a d a b i y o t m u a s s a l a r i
rahbarlari ko'rsatishi mumkin.
Ma'lumotlarga ko'ra, adabiyot
sohasida har yili 100 ga yaqin
nomzodlar ko'rsatilgan. Ammo
talabgorlari orasida uncha
masshur bo'limgan yozuvchilar
ko'pchilikni tashkil etgan.
Rusiyabzon Nobel mukofoti
laureatlariga (6 kishi) kelsak,
masalan I. Bunin, A. Soljenitsin,
I. Brodskiy ochiqchasiqa Sovet
hokimiyatiqa qarshi chiqqanlar.
Pasternak dissident bo'lib,
«Doktor Jivago» romanida
Oktyabr inqilobi davrida rus
intelligensiyasi fojasini, Sholoxov
esa «Tinch Don» asarida
Rossiyaning revolyutsiya va
fugorolar urushi tufayli asrlar
davomida faoliyat yuritayotgan
Don kazaklari harakatining
tugatilishi fojasini ko'rsatgandi.
Belaruslik Svetlana Alekseyevich
Belarus Respublikasidagi davlat
tuzumini ko'rsatgan asarlari
uchun 2015-yilda Nobel
mukofotini o'zining buyuk
asarlar – «Alvido, Gulsari»,
«Sohil bo'ylab chopayotgan
olapar», «Asrga tatiflik kun»,
«Qiyomat», «Kassandratamg'asi»
asarları uchun olishi mumkin
edi. Yozuvchi o'z asarlari
ekologik tafakkur, madaniyat
va munosabat, yangicha
gumanistik g'oyalalar haqida
so'z yuritish, zamonomazining
dolzarb muammolarini ko'tarib,
ularni global migyosda falsafiy
tomonidan o'chib bergan. Ayniqsa,
«Sohil bo'ylab chopayotgan
olapar» asari yuqori saviyada
yozilgan bo'lib, o'quvchiga
badiiy-estetik zavq beradi va
hatto, bu asar E.Xeminguening
«Chol va dengiz» asari bilan
qatorda turadi.

Qirg'izistonning birinchi
Prezidenti Askar Akayev o'z
esdaliklarda Chingiz Aytmatov
bilan Shvetsiyaga borganini
ta'riflaydi. Chingiz Aytmatov
Nobel mukofotiga nomzod
sifatida ko'rsatilganda, Shvetsiya
qiroli Karl XVI Gustav uni
huzuriga chaqirib, suhbatlashadi.
Chunki u tabiatga, ekologiyaga
juda qiziqqani uchun Aytmatov

aniqlashda oldingi Nobel
mukofoti laureatlari va Shvetsiya
Qirollik akademiyasi tomonidan
ko'rsatilgan nomzodlarga e'tibor
beriladi. Agar Nobel mukofotlari
laureatlari guruhi tomonidan
rasmiy ravishda bir nomzod
qol'lab-quvvatlansa, nomzodning
mukofot olish imkoniyati ortadi,
agar qarshilik bildirilsa, mukofot
olish imkoniyati kamayadi. Shuni
hisobga olish kerakki, adabiyot
nominatsiyasida ko'plab Nobel
mukofoti olganlar sotsialistik
tuzumga qarshi Kommunistik
partiya dushmanlari bo'lishgan...
Chingiz Aytmatov Nobel

asarlar bilan tanish edi.
Shvetsiya qiroli agar u akademiya
a'zosi bo'lganida, Aytmatovni
mukofotga loyiq ko'rishini, lekin,
afsuski, u Shvetsiya Qirollik
akademiyasi a'zosi emasligini,
ovozi berishga haqli emasligini
tushuntiradi...


Chingiz Aytmatovning
do'sti, aymatovshunos olim,
Qirg'iziston Fanlar Milliy
Akademiyasi vitse-prezidenti
Abdildajan Akmataliyev
yozuvchi haqidagi maqolaları,
kitoblarida ushbu voqeani yozgan:
«1980-yillarda oxirlarida Aytmatov
Avstriyada bo'lganida, Venada

«2008-yilda turkiy mamlakatlar
mashhur kishilari tomonidan
Nobel mukofotiga yana Chingiz
Aytmatov nomzodi ko'rsatilgan,
afsuski...»

Nobel komiteting maxsus vakili
Chingiz Aytmatovni shaxsan
izlab, unga Nobel mukofoti
berilishini xabar qiladi va
yozuvchini tabriklaysi. Afsuski,
Nobel mukofoti komiteti mukofot
laureatini rasmiy ravishda e'lon
qilishdan oldin o'z tarixida
birinchi bor, qarorini tezlik
bilan o'zgartiradi. Sababi, sobiq
ittifoqdan bir vaqtida ikki kishi
mukofot olishi mumkin emas
edi. Nobel mukofoti sobiq ittifoq
rahbari Mixail Gorbachevga
berildi».

Akmataliyevning ma'lum
qilishicha, 2008-yilda turkiy
mamlakatlar mashhur kishilari
tomonidan Nobel mukofotiga
yana Chingiz Aytmatov nomzodi
ko'rsatilgan, afsuski
yozuvchining bevaqt o'limi tufayli
uning nomzodi boshqa ko'rib
chiqilmagan. Qisqacha aytganda,
buyuk yozuvchi Nobelni olishga
to'la haqli edi. Ammo Nobel
kengashining jur'atsizligi sabab
bu mukofot unga nasib etmadi.


Abdurashid
KUZIBAYEVning ijtimoiy
sahifasidan olindi.



ISHQ

Tinglang meni yoronlar, qimmatli tuyg'udir ishq,
Qadrsizga berilmas, hummatli tuyg'udir ishq.
Ham jafodir, ham safo Hamzani otdi Qofga.
Ishq bilandir Mustafa, davlatli tuyg'udir ishq.
Toqqa tushsa kul aylar, ko'ngillarga yo'l aylar,
Sultonlarni qul aylar, juvatli tuyg'udir ishq.
Kimgaki ishq ursa o'q g'ussa bilan qayg'u yo'q,
Faryod bilan o'k'op, furgatlari tuyg'udir ishq.
Dengizlarni qaynatur, mavjiga solib o'ynatur,
Qoyalarni so'yatur, quvvatlari tuyg'udir ishq.
Aqlarni shoshirur, daryolarni toshirur,
Necha jigar pishirur, ki o'tli tuyg'udir ishq.
Miskin Yunus naylasin, dardin kimga so'yelasin,
Borsin do'sti to'yelasin, lazzatli tuyg'udir ishq.

Haq jahonga to'ladir, bandalar haqni bilmash,
Uni sen sendan izla, u sendan ayro bo'lmas.
Dunyoga ishonursan, rizqni meniki dersan,
Nechun yolg'on so'ylarsan, chun hech deganang bo'lmas.
Oxirat ko'p yiroqdir, bilsang to'g'rilik oziq,
Ayrilish juda uzoq, ketgan hech qayrib kelmas.
Dunyoga kelgan ko'char, bir-bir sharbatin ichar,
Bu bir ko'prikdir, o'tar, johillar buni bilmash.
Keling tanish bo'laylik, ishni qulay qilaylik.
Sevaylik, sevilaylik dunyo hech kimga qolmas.
Yunus so'zin tinglar esang, ma'nosini anglar esang.
Senga bir amal kerak, dunyoda hech kim qolmas.



MENI MENDAN ICHKARI...

Sevarman men seni jondan ichkari,
Yo'lim kechmas bu arkondan ichkari.
Meni menda dema menda emasman,
Bir men bordir menda mendan ichkari.

Qayga boqar ersam unda erursan,
Seni qonday qo'yam mendan ichkari.
U bir dilbardurur yo'qdir nishoni,
Nishon bo'turm, nishondan ichkari.

Meni mendan so'rma, menda emasman,
Suratim bo'sh yurur to'dan ichkari.
Meni mendan olganga yetmas qo'lim,
Qadam kim bosar sultondan ichkari.

Tajallidan nasib etdi kimiga,
Kimining maqsudi undan ichkari.
Kima diyord kundan shu'la teksa,
Uning shu'lasi bor kundan ichkari.

Muhabbating meni mendan olib tur,
Na shirin dard bu, darmondon ichkari.
Shariat, tariqat yo'ldir yurganga,
Haqiqat, ma'rifat undan ichkari.

...Sulaymon qush tilin bilar, dedilar,
Sulaymon bor Sulaymondan ichkari.
Unutdin din-diyonat qoldi mendan,
Bu ne mazhabdar, dindan ichkari.

Yunus Emre she'rlari bir necha yuz yillardan davomida turli ijodkorlar tomonidan mustaqil tarjimasi bo'lmagan uchun hamular yig'ilib bir joyda to'plandi. Ishonamizki Yunus Emre ijodi barcha ijod ahlining ko'ngildan allaqachon chuquq joy egallagan.

HIKOYAT YO RIVOYAT

Qulqoq tutgin birodar,
Aytag senga hikoyat,
Shoyad eshitib buni,
Topgaydirsan hidoyat.

O'lim kelib to'satdan,
Bir yigit barvaqt o'ldi,
Gunohlari ko'p ekan,
Qabri otashga to'ldi.

Yillar o'idi oradan,
Yigit qiyonqda yotar,
Ko'tarilmash azoblar,
Kundan kun bo'lar battar.

Ammo bir kun qabrga
Farishtalar kelishdi,
Zulmat bosgan bu qabr,
Birdaniga yorishdi.

Farishilar dedilar:
"Bitdi qabr azobi,
Endi sizga bo'lmagay
Allohnning hech g'azabi.

Bu sovg'alar siz uchun,
Bo'lsin sizga muborak.
Biziarning kelishimiz,
Sizga jannahdan darak".

Yigit dedi: "Malaklar,
Qizlar shoshib golibsiz,
Loyiqmasman sovg'aga,
Siz adashib kelibsiz.

Orzularim ko'pedi,
O'lib ketdim armonda,
Loyiqmasman sovg'aga,
Qilnang meni sharmanda.

Yotaverib bir joyda,
Ko'nikdimku sabrga,
Olib borib beringlar,
Uni boshqa birovga

Farishtalar dedilar:
"Biz qilmaymiz hech xato,
Bu sovg'alar Siz uchun,
Sizga qilingan ato.

Jon oluvchi farishta
Joningizni olgandi,
O'sha payt beshikda,
Farzandizing qolgandi.

Insonlarga farzandlar,
Beriladi omonat,
Omonatiga xiyonat -
O'rgatmasa diyonat.

Ayolizing tarbiya
Qildi yolg'iz bolani,
Farzandizing shu bugun,
O'rgandi "Bismillah"ni.

Qabringizni tark etar,
Endi azob - g'avg'olar,
Diyonatli farzandandan,
Kelaverar sovg'alar.

Yaxshi qolgin ey yigit,
So'zimiz rostdir ishon",
Farishtalar ketidilar,
Qabr bo'ldi nurafshon.

Oxiratni unutdig,
Dunyolarga berilib,
Savob ishni or bibil,
Gunoh qildik kerilib.

Bismillahni o'rganish,
Shuncha savob bo'lsa gar,
Qancha savob bo'larkan,
Qur on o'qisa agar.

Duo qiling azizlar,
Farzandlar olim bo'lsin,
Biz qabrga yotganda,
Qabrimiz nurga to'lsin!

ALHAMDULILLAH

Haqdan kelgan sharbatni
Ichdik, alhamdulillah,
Shul qudrat dengizini
Kechdik, alhamdulillah.

Qarshidagi tog'larni,
Daraxtzor-u bog'larni,
Sog'lik, safolik bilan
Oshdik, alhamdulillah.

Yosh edik, keksa bo'ldik,
Qanotlandik, qush bo'ldik,
Bir-birimizga esh bo'ldik
Uchdik, alhamdulillah.

Borgan o'lkalar osha,
Safoli ko'ngillarga,
Bobo - Topqo ma'nosin
Sochdik, alhamdulillah!

Singilsulton qo'lidan,
Shakar tomar tilidan.
Do'st bog'ining yo'lidan,
Kechdik, alhamdulillah!

Beri kel, kelishaylik,
Yot bo'lsang tanishaylik,
Otimiz egarlandi,
Esdik, alhamdulillah.

Enib Rumni qishladik,
Ko'p xayr ish ishjadik,
Uch bahorni o'tkazib,
Ko'chdik, alhamdulillah.

Ko'z ochib bulog bo'ldik,
Ko'payib irmoq bo'ldik,
Oqdik dengizga to'ldik,
Toshdik alhamdulillah.

Topdinqing topusinda,
Qul bo'ldik gopusinda.
Yunus miskin xom edik,
Pishdik, alhamdulillah!

SALOM BO'L SIN

Biz dunyodan ketar bo'ldik,
Qolganlarga salom bo'lsin.
Bizlar uchun xayr duo,
Qilganlarga salom bo'lsin.

Ajal bukar belimizni,
So'ylatmasdan tilimizni,
Xasta ekan, holimizni,
So'rganlarga salom bo'lsin.

Tanam o'rtaga olinur,
Yoqasiz ko'yak bichilur,
Bizni toza bir vajh ila,
Uyvganlarga salom bo'lsin.

Azroil olgaydir jonomiz,
Qurur tomirda qonimiz,
So'nggi kiyim kafanimiz,
Tikkanlarga salom bo'lsin.

Ketar bo'ldik Do'stimizga,
Yetolmadik qasdimizga,
Qasd aylab janozamizga,
Kelganlarga salom bo'lsin.

So'zdir so'ylanur orada,
Kimsa urmas bu yaraga,
Borib bizni maqbaraga,
Qo'yanlarga salom bo'lsin.

Dunyoga kelganlar ketar,
Hargiz kelmas yo'lgadir,
Bizning holimizdan xabar,
Olganlarga salom bo'lsin.

Yangi kitob

«MARDI MAYDON»



«Adabiyot» nashriyotiда
«Mardi maydon» nomli kitob
nashrdan chiqdi.
Ushbu kitobda yozuvchi
va kinodramaturg G'afur
Shermuhammadning
turli yillarda yozilgan va
xalqimiz sevib tomosha
qilgan filmlarga asos bo'lgan
asarlar, yangi kinopovesti
jamlangan.
Bu asarlarda yurdoshlarini
mizning tanti fe'l-atvori, ibratlari

hayot tarzi, sevgi va muhabbat
iztiroblari, orzu-intilishlari aks
etgan.
O'yulaymizki, ushbu to'plam
kitobxonlarga o'ziga xos
ifodasi, badiiyati bilan manzur
bo'ladi.
Kitob O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi homiyligida chop
etilgan bo'lib, mas'ul muharrir
- Nurullo Chori.
Aytish kerakki, O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi a'zosiz

G'afur Shermuhammad nash
va dramaturgiya janrlarida
samarali ijod qiladi. «Quduq
tubidagi faryod», «Pariqishloq
afsonasi» kabi pyeslarini
respublikamiz teatrлarida
sahnalaştilirilgan.
Yozuvchining adabiy asarlari
asosida «Chavandoz»,
«Arosat», «Ta'ziyadagi to'y»,
«Aldangan ayol» singari
yana bir nechta badiiy
filmlari, ko'plab hujatli va

multiplikatsion filmlar suratga
olangan. Muallifning ko'plab
povest va hikoyalari adabiy
to'plamlarda, jurnallarda chop
etilgan. G'afur Shermuhammad
qoraqalpoq yozuvchisi
Murodboy Nizanovning
«Aqchagul» qissasi, «Oxirat
uyquisi», «Dushman»
romanlarini qoraqalpoq tilidan
o'zbek tiliga tarjuma qilgan.

N.USMONOVA

? - Internet do'kondan mobil telefon sobit olgandim. Reklamadagi ma'lumotlar bilan mahsulot sifatini bir-biriga to'g'ri kelmayapti. Bu holatda nima qilishim mumkin?

Elmira Turapova, Nukus shahri

- Agar tovar (ish, xizmat) haqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmasagan ma'lumot berilganligi uchun zarur iste'mol xossalariga ega bo'lmasagan tovar sobit olinsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqli. Noto'g'ri reklama oqibatida sobit olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

? - Aka-uka qo'shi bo'lib yashaymiz. Onamiz tirikligida vasiyat qilib 1300 kv.m joyni bizlarga goldigan. Ukan kadastr hujjatlarini rasmiylashtirganda menga tegishli hududga o'tgan. Bu vaziyatda nima qilsam bo'ladi?

Yunus Berdiyev, Namangan viloyati

- Fuqarolik kodeksining 1146-moddasiga ko'ra, Siz meros ochilgan joydagisi notariusdan meroسا bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma olasiz. Shuningdek, merosni qabil qilib olgan merosxo'rlardan biri merosning taqsimlanishi talab qilishga haqli. Agarda merosni taqsimlashda merosxo'rlar kelishuvga erisha olmasa, sud tartibida amalga oshiriladi. Shundan so'ng, har kim o'z merosiga nisbatan tuman kadastri bo'limiga murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

G'olibjon Tangriyev, huquqshunos



? - Ko'pincha yuz kremlari qodog'ida SPF 15, 30 yoki 50 yozuviga ko'zim tushadi. Bu niman anglatadi?

Shahnoza Qurbanova, Yangiariq tumani

- SPF - Sun Protection Factor, ya'ni quyoshdan saqlovichni omil ma'nosini bildirib, kremning tarkibiy qismi terini ultrabinafsha nurlaridan asrash uchun qo'llaniladi. SPF 15 kremi ultrabinafsha nurlarining 93 foizidan himoya qila olganligi sababli uni teriga qalinroq qo'llash lozim bo'ladi. SPF 30 nurlarning 97 foizidan, SPF 50 esa 98 foizidan himoya qilishi mumkinligini anglatadi.

Dildora Ziyoyeva, shifokor-dermatolog

? - Indiana shtati Universiteti kutubxonasining cho'kayotgani haqida eshitib goldim. Shu haqda ma'lumot bera olasizmi?

Sarvinoz Samadova, Yashnabod tumani

- AQSHning Indiana shtati Universiteti kutubxonasi haqiqatdan ham arxitektor va quruvchilarining xatosi sababli har yili 1 dyum (2.54 sm)ga cho'kishi tasdiqlangan. Bunga sabab qilib esa bino loyihalashtirilishiha quruvchilar kitoblarining og'irligini hisobga olmagani ko'rsatilgan.

? - Internet tarmog'ida ilk bor qaysi veb-sayt ro'yxatidan o'tkazilgan va u hozir ham faoliyat yuritadi?

Shahram Norbekov, kollej talabasi

- 1991-yilning 6-avgustida CERN (Yevropa yadroviy tadqiqotlari tashkiloti) tadqiqotchisi britaniyalik Tim Berners-Li insoniyat tarixidagi birinchi veb-saytni ishga tushirgan (<http://info.cern.ch>). Ushbu saytg'a olim o'zining asosiy loyihasi – butunjanhon internet tarmog'ini yaratish haqidagi asosiy ma'lumotlarni joylashtirgan. Mazkur sayt hozir ham ishlamoqda.

Umid Sharopov, IT mutaxassis



? - Birlashgan Millatlar Tashkiloti universiteti haqida bilmoechiman. Uning asosiy faoliyati nimadan iborat?

Azamat To'xtayev, talaba

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti universiteti (UNU) Yaponiyaning Tokio shahrida joylashgan bo'lib, BMT va unga a'zo davlatlarning maqsad va tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanuvchi xalqaro olimlar hamjamiyati hisoblanadi. Universitet asosan tinchlik va boshqaruv, atrof-muhit va rivojanish dasturlari bo'yicha faoliyat olib boradi. Shu bilan birga rivojanayotgan mamlakatlar salohiyatini oshirishga hissa qo'shib, innovatsion g'oyalari va muloqotlar uchun platforma sifatida ham xizmat qiladi.

www.un.org

Prezident farmoni amalda



BOLALAR VIRTUAL LABORATORIYADA BILIM OSHIRADI

Ohangaron tumani "Qoraxitoy" mahallasi da 12-umumta'lum maktabida "Interactor ta'lim VR" dasturi joriy qilindi. Hozirda zamonaviy darslik sinovdan o'tkazilmoqda. Endi kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlari mutlaq xavfsiz, virtual shaklida olib boriladi.

Ushbu loyiha mammakatimizda Toshkent viloyati misolda birinchi bor amalga oshirilmoqda. Kelgusida bu kabi ko'plab ilg'or tashhabbuslar viloyatning boshqa hududlarida ham keng joriy qilinishi rejalashtirilagan. Ma'lumot uchun Prezidentminzing 2022-yil 6-iyuldag'i «2022 – 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoniga asosan Ohangaron tumani va Chirchiq shahri «Innovatsion hudud» maqomini olgan. Unga ko'ra, joylardagi ta'lim muassasalarida ta'lim tizimida virtual reallikka asoslangan ilg'or vizualizatsiya texnologiyalari hamda masofaviy o'qitishning onlayn-platformalari, bilim berishning yangi usul va vositalarini joriy qilish belgilangan.

A.MUSAEV, O'ZA.

"MILLIY
DEMONSTRATIV
PARTIYASINING
LITIMOY-
SIYOSIY
GAZETASI"

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Osiyon TOJIVEV,
Ol'man OSAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Orqaliq OZOZOQOV,
Feruza MURAMMEDJANOVA,
Xursandzoda SHAVSIYATMAD,
Sherzodxon QUDRATKHOJA,
Sharvat SHARIPOV,
Sherzatjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Masqut Shayxzoda
ko'chasi, 1 A-uy,
Gazeta tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtayi
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar
doimiy e'tiborimizda bo'lib,
ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI
MUHARRILAR:
Ravshan MAHMUDOV,
Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza KODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-
matbas aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:
mktlanish@bk.ru/
mktlanish@mail.ru

ISSN 2010-7714



2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.

Gazeta haftanig chorshanba kuni
chiqadi.

Adadi – 8 657.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxdan.
Qog'oz bichimi: A3. Hajmi: 4 bosma
taboq
Buyurtma: G – 516
Boshishga topshirish vagti 21:00.
Topshirildi 2:40

123456

99
443-05-86
WhatsApp Telegram

O'zingizni qiziqitqan savollarga
javob topolmayapsizmi? Bizning
quyidagi telegram manzilimiza
yo'ilang, bizning mutaxassislar
savollaringizga javob berishadi.